

**TA'LIM SIFATINI OSHIRISH - YANGI O'ZBEKISTON
TARAQQIYOTINING ASOSI SIFATIDA****N. Toshniyozov**

IIV Navoiy akademik litseyi

*“Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar”**kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda ta'limning o'rni, ta'lim sifat va samaradorligiga qo'yilgan talablar hamda mustaqillik yillarida ta'lim sohasidagi islohotlar, muammo va yechimlar atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim sifati va samaradorligi, ta'limining zamonaviy konsepsiyasi, Harakatlar strategiyasi, pedagogik yondashuv, ijtimoiy yondashuv, sifatli ta'lim.

Bugungi kunda har qanday mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligi, balki birinchi navbatda zamonaviy, muntazam yangilanib turgan texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir bilimli va intizomli kadrlarni tayyorlashga bog'liqdir. Globallashuv davrida bilimlilik mamlakatni rivojlantirish va uning milliy boyligini ko'paytirishning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda, aholining yuksak ma'naviy darajasi esa odamlarda huquqiy madaniyatni, erkin demokratik huquqiy davlatda yashash, unda mehnat qilish qobiliyatini shakllantirish, o'z huquq va erkinliklarini ahglash, ulardan shaxs, davlat hamda jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanish imkonini beradi. Bugungi kunda faqat yuksak bilimli, zamonaviy, mustaqil fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va amaliy kasb-hunarga ega yoshlarga mamlakatning buyuk kelajagini ta'minlashi mumkin. Bu bevosita mamlakatda ta'limning sifat va samaradorligi, uning nechog'lik darajada rivojlanganligi bilan bog'liqdir. Shu ma'noda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, jahon ta'lim tizimi andozalariga mos ravishda rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatlarning iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi ma'lum darajada ta'lim sifati bilan belgilanadi, intellektual, ya'ni aqliy resurslar sifati esa dunyodagi eng geosiyosiy omilga aylanmoqda. Ta'lim sifati jamiyatning turmush sifatini ham belgilab, nafaqat ta'lim tizimi uchun, balki, davlatning qanchalik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun ham eng asosiy muammo hisoblanadi. Aynan ta'lim va tarbiya sifati mamlakatlar rivojlanish darajasini ko'proq belgilamoqda. Shu bois, bugungi kunda davlatlarning bosh strategik maqsadi ta'limning sifat va samaradorligini oshirishdir. Bu esa o'z navbatida pedagoglar zimmasiga yanada ulkan mas'uliyat yuklaydi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2022 yil yakunida Parlamentga murojaatnomasida ta'kidlaganlaridek, - “Maktablarda ta'lim sifati hamda jamiyatda

o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarimizning sharoitlarini yaxshilash 2023 yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi"[1].

Shuningdek, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'qituvchilar faoliyatiga quyidagicha baho beradilar: "Biz yurtimizda yangi avlod, yangi sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz"[2] deb bejiz ta'kidlamaganlar. Haqiqatdan ham o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalar kelajak amaliyotda integratsiyalashadi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi yoki aksincha. Bugungi kunda jamiyat globallashuvi sharoitida yangi texnika va texnologiyalarning ma'naviy eskirishi o'tgan asrdagidek 30 - 40 yil emas 2-5 yilni tashkil etmoqda. Endilikda avval ma'lum bo'lgan, erishilgan, darsliklarga kiritilgan bilimlarni o'zlashtirishning o'zi yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu munosabat bilan, boshqaruv va ta'lim muassasalari ta'lim iste'molchilarining doimiy oshib borayotgan ta'lim sifatiga bo'lgan talablarini maksimal darajada qondirishga tayyor turishlari lozim. Shu o'rinda ta'lim sifati nima va u pedagogikada qanday talqin etiladi degan savol tug'iladi. Pedagogikada "ta'lim sifati" tushunchasi o'tgan asrning 60-70 yillaridan buyon muhokama etib kelinadi. Bugungi kunda ushbu tushunchaga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ba'zi holatlarda bir-biriga zid bo'lgan talqinlarni ham uchratish mumkin. Masalan, ta'lim sifatini jamiyatdagi ta'lim jarayonining holati va uni natijaviyligini belgilaydigan, ta'lim jarayonida shaxsning fuqarolik, ijtimoiy va kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda erishilgan natijalarning jamiyatning talab va ehtiyojlariga muvofiqligini aniqlaydigan ijtimoiy kategoriyadir (S.Y.Shilova); shaxsning kasbiy ijtimoiylashuvi jarayonini ta'minlovchi omil (G.A.Bordovskiy) kabi talqinlar shular jumlasidandir. Umuman olganda yuqoridagi fikrlarga tayanib ta'lim sifatiga shunday izoh berish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim sifati bu - shaxs, jamiyat va davlatning talab va ehtiyojlarini inobatga oladigan kutiladigan jarayon va natijadir degan xulosaga kelishi mumkin. Pedagogik yondashuv nuqtai nazaridan ta'lim sifati shaxsning ta'lim olganlik, tarbiyalanganlik darajasini bildirsa, metodologik yondashuv nuqtai nazaridan ta'lim jarayonida erishilgan natijalarning belgilangan maqsadga muvofiqligi nazarda tutiladi. Ijtimoiy yondashuv nuqtai nazaridan esa ta'lim sifati deganda iste'molchilarining ehtiyojlarini qondirilganlik darajasi tushiniladi.

Demak, ta'lim sifati jamiyatdagi ta'lim sifatining holati va samaradorligini belgilaydigan mezon hosoblanib, ta'lim jarayonida erishilgan natijalarning me'yoriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarga muvofiqligini aniqlaydi. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish ta'lim natijalari hamda uning sifat va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu jihatdan, innovatsion texnologiyalar

asosida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirish muammosi ta'lim sohasining balki, davlatning va jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimida innovatsion jarayon rahbar va pedagoglarning innovatsion faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim muassalarida innovatsion ta'lim texnologiyalarni tadbiq etish va foydalanishdan ko'zlangan asosiy maqsad:

- ta'lim sifatini yanada yuqori bosqishga ko'tarish;
- ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish;
- ta'lim oluvchilarning funksional savodxonligi, ijodiy, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish;
- ta'lim oluvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash;
- fan va amliyatning yangi yutuqlaridan foydalanib, ta'lim oluvchilarda faoliyatni motivatsiya qilish ko'nikmasini rivojlantirish;
- ta'lim oluvchilarda ma'lumotni mustaqil qabul qilish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ta'lim oluvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish hioblanadi[3].

Ta'limni sifat va samaradorligi me'zonlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- ta'lim oluvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy, tahliliy, mantiqiy, ijodiy fikrlashga va ular asosida to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish;
- ta'lim oluvchilarni muammoli vaziyatlardan qiynalmay chiqib olishga, nazariy va amaliy topshiriqlarni bajarishni uddalashga o'rgatish;
- ta'lim oluvchilarni fikrlashga undash orqali ularni izlanishga va ijodkorlikka yo'naltirish;
- ta'lim oluvchidagi hamkorlikning samarali yo'llarini va kasbiy bilim, ko'nikma hamda malakalarini egallashga bo'lgan hatti-harakatlarini faollashtirish;
- ta'lim oluvchilarni tashkilotchilik, boshqaruvchilik (rahbarlik)ka undash[4].

Ta'lim sifati va samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim beruvchining bilim, malaka va ko'nikmasining qay darajadaligiga bevosita bog'liq. Ta'lim beruvchining nazariy va amaliy bilimi yetarli darajada shakllangan bo'lib u darsning vazifasini aniq belgilash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bu bo'yicha "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da "yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash, o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish, ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv uslubiy majmualarni yaratish hamda o'quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash"[5] masalasi ustivor vazifa qilib belgilangan.

Keyingi yillarda ta'lim sifati va samaradorligi muammosi dunyo miqyosida tahlil etilmoqda. Bugungi kunda ko'pgina mamlakatlar ta'lim sifati bo'yicha qiyosiy tadqiqotlar metodologiyasi, texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish masalasida

ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Buning natijasida butun dunyoda ta'lim sifatini monitoring qilish tizimi yaratildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, so'nggi yillarda uzluksiz ta'limni yangi sifat bosqichiga ko'tarish va uning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, ta'lim sifatini oshirish- Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasi matnidan.<https://kun.uz>.
2. Karimov I.Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-T.: O'zbekiston. 2009
3. Doniyorov B. Innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirish muammolari. Xalq ta'limi.T.: 2013 yil 6-son, 23-bet.
4. Meliyeva I., Saidvaliyeva N. Interfaol usul- iqtidorni yuzaga chiqarish omili. Xalq ta'limi. T.: 2013 yil 2-son,
5. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.Toshkent.: Sharq.1997 yil.12-bet